



BERDAQ VA O'ZBEK ADABIYOTI

Gulandom Quramboyeva

filologiya fanlari doktori,

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti

Dotsenti

Аннотация. Мақолада қорақалпоқ мумтоз шоири Бердақ Қарғабой ўгли ижодининг ўзбек адабиётига таъсири масалалари ҳақида сўз юриталади.

Калит сўзлар: адабиёт, шеър, таъсир, ижод, гоя, мазмун, ҳаёт, халқ, шоир, ёзувчи.

Аннотация. В статье рассматривается вопрос о влиянии узбекской литературе творчество каракалпакского выдающегося поэта Бердаха Каргабай угли.

Ключевые слова: литература, стихотворение, влияние, творчество, идея, смысл, жизнь, народ, поэт, писатель.

Annotation. The article talks about the influence of the work of the son of the Karakalpak poet Berdak Kargaboy on Uzbek literature.

Keywords: literature, poetry, influence, creation, idea, content, life, people, poet, writer.

Jahon adabiyoti tajribasidan ma'lumki, har bir xalq, har bir millat adabiyotida o'z adabiyoti doirasidan chiqib, dunyoga tanilgan so'z san'atkorlari bo'ladi. Ular nafaqat o'z adabiyoti, xalqini ham dunyoga tanitadi, shuhratiga shuhrat qo'shadi. Umuminsoniy g'oya va qadriyatlarni, boshqa xalqlar uchun ham qadrlil bo'lgan an'analarni qalamga olib tasvirlagani bois ham har bir xalq tomonidan ardoqlanadi, o'z milliy adabiyoti ijodkoridek qabul qilinadi.

XIX asrda yashab ijod etgan ulug' qoraqalpoq shoiri Berdaq Qarg'aboy o'g'li mana shunday e'tirofqa loyiq qalam sohibidir. U qoraqalpoq xalqini, adabiyotini dunyo minbariga olib chiqqan, turkiy xalqlar uchun ham birday ardoqli zabardast so'z san'atkoridir. Shoir ijodi o'zbek va qoraqalpoq ijodkorlariga ilhom bag'ishlagan. Badiiy ijod bilan shug'ullanadigan atoqli o'zbek shoirlari va yozuvchilari Berdaq ijodi yuzasidan fikrlar bildirgan, shoir talantini ulug'lab she'rlar yozgan. Bu o'rinda K. Yashin, Mirtemir, A. Muxtor, A. Oripov, M. Ali, G. Matyoqubova, E. Samandardek taniqli ijodkorlarning Berdaq iste'dodiga bergan bahosi, asarlaridan ta'sirlanib qalam tebratgani, berdaqona uslublarda she'r bitgani nazarda tutilmoqda. Agar K. Yashin "Berdaq qoraqalpoq eli chegaralarini kengaytirib yuborgan shoir" deb yozgan bo'lsa, A. Muxtor Berdaqni "O'rta Osiyo adabiyotining Maxtumquli va Abaydek yorug' yulduzi", deb ta'riflaydi. M. Ali "Tog'dan uchgan burgut" maqolasida Berdaqni





“burgutga” qiyoslaydi, “o‘z elining aytar so‘zi, ko‘rar ko‘zi” deb ta‘riflaydi va yozadi: “Berdaq she‘r va dostonlarida o‘zini yozdi, o‘z umrini kuyladi, o‘z xalqi tarixini sozga soldi, g‘ururlandi, alam tortdi, quvondi, o‘kindi. Jaholatli bir davrda yashashiga qaramay ko‘nglini bir lahza bo‘lsin ishonch tark etmadi. Qoraqalpoq xalqi tarixining cho‘qqilaridan parvoz qilgan she‘riyat burguti bugungi kunda o‘zining qo‘nar yerini topgandir. Bu “qo‘nar yer” kuylarda emas, balki yuksaklarda – kishilar qalbida, xalq yuragidadir”.

Isyonkor shoir she‘riyati burgutning parvozigina o‘xshatilishi adabiyotda kamdan-kam uchraydigan tashbeh. Bu - Berdaq ijodini baholashdagi o‘ziga xos yangi lutf. Bunday obrazli talqin hatto berdaqshunos olimlarning hech birida yo‘q. Berdaqdan tarjima jarayonida shoir she‘riyatiga xos poetik go‘zallikni qalbiga jo qilgan M. Alidek iste‘dodli so‘z ustasigina shu xilda fikr ayta olsa kerak.

A. Oripov Berdaq ijodining tom ma‘nodagi ixlosmandi, targ‘ibotchisi edi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. U biror adabiy minbardan nutq so‘zlaydimi yoki Berdaqqa bag‘ishlab she‘r yozadimi yoxud shoirning yubiley tantanalarida qatnashib, tabrik so‘zi aytadimi, Berdaqning umriboqiyligidan, o‘z xalqining dardu tashvishlarini kuylagan, mangulikka daxldor dono shoirlikidan so‘z ochadi. Shoir yozadi: “Mening nazarimda, haqiqiy shoir so‘nmas yulduzga o‘xshaydi. Meteorit o‘zi ajrab chiqqan yulduz o‘zi haqida ma‘lumot berganidek, shoir ham o‘z xalqining kimligi to‘g‘risida insoniyatga, kelgusi avlodlarga xabar yetkazadi. Berdaq bobomiz ham qoraqalpoq xalqi to‘g‘risida butun olamga, kelgusi avlodlarga jar solib turibdi. U bugun faqat qoraqalpoqlarninggina emas, barcha xalqlarning izzat-hurmatiga sazovor bo‘lgan shoiridir. Xalq mangu ekan, Berdaq ham barhayot.”

Berdaqning ulug‘ligi, betakror shoirliqi, xalqchilik ijodining asl mohiyatini tashkil etishi shu tarzda baholanadi. Berdaq ijodi o‘zbek shoirlari uchun ham ilhom chashmasi bo‘layotgani e‘tiborli hodisa. She‘rlarining g‘oyaviy asoslari, ifoda shakli, poetik ohangi yangi zamon ruhini badiiy talqin etishda shoirlarimizga namuna bo‘lmoqda. Berdaq yo‘lida, uslubi va ohangida she‘rlar yozilmoqda.

Berdaq she‘riyatidan ta‘sirlanib, berdaqona badiiy shaklda she‘rlar bitgan o‘zbek shoirlaridan biri Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Guliston Matyoqubovadir. Shoira Berdaq ijodini mukammal bilibgina qolmay, she‘rlarini ham o‘zbek tiliga o‘g‘irgan. Berdaq she‘riyatidan tarjimalar shoirada Berdaq uslubida she‘r yozish istagini uyg‘otgan ko‘rinadi. Shoiraning “Ko‘rindi” radifli olti bandlik she‘ri shoiraning





“Berdaqning baxti ko‘rindi” nomli ixcham maqolasi oxiriga ilova tarzida “Vatan ruhi” (2010) to‘plamida e‘lon qilindi.

Berdaq merosida “Ko‘rindi” radifli yigirma olti bandlik bir she‘r bor. She‘r shoirning o‘z zamonidan nolish kayfiyatida yozilgan. Adolatsiz xonlar, shafqatsiz amaldorlar, xalq boshiga cheksiz-chegarasiz kulfatlar yog‘dirgan zolimlar shoirning tanqid nayzasiga ilinadi, keskin qoralanadi:

Adamga miyrimisiz jalladlar, jawlar,
Xaliqui jilatqan ataliq-xanlar,
Basqa awir qaygi salgan zalimlar,
Kozlerime shayan-jilan korindi...¹

Shoir lirikasining ijtimoiy pafosi, xalqi taqdiri uchun kuyib-yonish dardi Berdaq she‘rining har bandida alamli kechinmalar tarzida yangrab turishi haqiqat.

G. Matyoqubova bu mavzuga o‘zicha yondashadi. Ya‘ni shoira she‘rda o‘tmish haqida emas, hozirgi ozod va obod turmush xususida so‘zlaydi. Muallif go‘yo Berdaqqa murojaat qilib: sen orzu qilgan ozod va obod zamon keldi, sen yashab o‘tgan Vatan endilikda gullab-yashnamoqda, bugungi avlod farovon hayot kechirayapti, deyayotganday bo‘ladi.

Obod bo‘ldi ozod zamon,
Havas qilar olam jahon,
Odam o‘g‘li aziz inson,
Berdaqning qaddi ko‘rindi.

Ko‘ngil uyi ziyolanib,
Buloqlari daryolanib
Mangu umri dunyolanib,
Berdaqning taxti ko‘rindi.²

She‘r kontrast usulida yozilgan. Mumtoz shoirning o‘z zamonidan noroziligi, zamonaviy shoirning bugungi farovon hayot haqidagi qarashlari fonida ikki xil hayot

¹ Бердақ. Таълаамалы шығармалары. - Нөкис: Қарақалпақстан, 1987. – Б. 60.

² Матёқубова Г. Ватан руҳи. - Нукус: 2011. – Б. 88





sharoiti taqqoslanadi, bir vaqtlar Berdaq yashab ijod etgan adolatsiz tuzum o'rniga endi "bir yoni gul, bir yoni obod" muqaddas Vatan qad ko'targani haqidagi fikr G. Matyoqubova she'rining mazmun mohiyatini tashkil etadi.

Bo'zatovda so'fito'rg'ay,
Bobomizga zabon bo'lgay.
Bu dunyo turguncha turgay,
Berdaqning ahdi ko'rindi.

Qo'ng'irotda Bektog' bo'lib,
Turkiylarga o'rtoq bo'lib,
Aziz qoraqalpoq bo'lib,
Berdaqning shashti ko'rindi.¹

She'rda tilga olingan atamalar, joy nomlari Berdaq yashab ijod etgan makonlar. Bugun bu joylar Berdaq zamonidan farqli, gullab-yashnayotgan bir o'lkaga aylandiki, shoira bu hayot ko'rinishini go'zal bir poetik shaklda ifodalab bera olgan. Qisqasi, Berdaq qo'llagan badiiy shakl bugungi hayot manzarasini she'r qilib yozishda shoiraga namuna bo'lgani aniq.

O'zbek adabiyotida xuddi shunday uslubda, Berdaq she'riga o'xshatma qilib yozilgan yana bir she'r bor. Bu – taniqli shoir va yozuvchi E. Samandar qalamiga mansub "Berdaq to'yi" she'ri. Mazkur she'r Berdaqning 150 yillik yubileyi tantanasi munosabati bilan yozilgan. She'rga Berdaqning:

Qanchalar och, qanchalar to'q,
To'q odamlar qayg'usi yo'q.
Ochlarning hech uyqusi yo'q,
Uni to'qlar bilgan emas.

degan bir bandi epigraf o'rnida keltirilgan. She'ring g'oyasi, mazmuni Berdaq she'riga o'xshamaydi. E. Samandar she'rida Berdaq yashagan zamonning ruhi, nohaqliklarga nafratini bildirishda shoir o'ta jasoratli bo'lgani, hayqiriq, isyonkorlik har bir she'rida yetakchi motiv bo'lgani, asarlarining umumiy pafosi, haqiqatni himoya

¹ Matyoqubova G. Vatan ruhi. - Нукус: 2011 й., - Б. 98.



qilishga qaratilgani haqidagi Berdaq fikri o'zbek shoiri qalamida o'ziga xos aks sado beradi.

Berdaq gapning rostin aytdi,
Yurtning baland-pastin aytdi,
Yuragining shashtin aytdi,
Zo'rlardan tap tortgan emas.

O'chsin, dedi, ochlik oti,
Ochko'zlikka toshlar otdi,
Ochko'z bo'lar odam zoti,
Ko'zi molga to'ygan emas...¹

Berdaq buyuk so'z sohibi, ezgulik kuychisi bo'lib, xalqi dardi va orzulari ijobati uchun yashagan, kurashgan, ijod qilgan ekan, bunday ijod mangulikka daxldorligi haqidagi fikrlar she'rda majoziy ma'nolarda topib aytilgan.

Tog'lar qori erib ketar,
Yoz gullari so'lib ketar,
Hatto yulduz so'nib ketar,
Berdaq she'ri so'ngan emas.¹

Berdaq yo'lida yozilgan she'rlar shaklan mushtarak bo'lsa-da, mazmun-mohiyatida katta farq bor. Ko'ngillarga nur bo'lib yog'iladigan olijanob ezgu fikrlar, qardoshlik tuyg'ulari, qolaversa, o'zbek adiblarining Berdaq merosiga hurmati, she'riyatidan ilhom olib qalam tebratishi kabi xususiyatlar bu she'rlarga jilo berib turadi. Eng asosiysi, bunday she'rlar ikki qardosh xalq adabiy aloqalari sahifalarini to'ldirishi barobarida, xalqlarimizning bir-birlari adabiyotiga nisbatan qiziqishi va hurmatini oshirishga ham xizmat qiladi. Berdaq ijodi o'zbek adabiyoti taraqqiyotining hamma bosqichlarida adiblar, olimlar e'tiborida bo'lib kelgan. Berdaq ijodidan tarjimalar yoxud shoir an'analarning o'zbek adabiyotida davom etishi bilan bog'liq

¹ Самандар Э. ...Ва яна баҳор. - Тошкент: Алишер Навоий кутубхонаси, - Б. 88.

¹ Самандар Э. ...Ва яна баҳор. - Тошкент: Алишер Навоий кутубхонаси, - Б. 89



jarayonlar, atoqli o'zbek shoirlari va yozuvchilari tomonidan bildirilgan fikrlar, ularning bari o'zbek berdaqshunosligi yo'lida amalga oshirilib kelayotgan e'tiborga molik ishlardir. O'zbek adabiyotida Berdaqqa bag'ishlab va Berdaq yo'lida, uslubida bitilayotgan ko'pdan-ko'p she'rlar ham buyuk qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri nomi va asarlari abadiyatidan dalolat beradi.

